



MAHMUDXO`JA BEHBUDIYNING "IKKI EMAS, TO`RT TIL KERAK" MAQOLASI G`OYANING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI .

Mushtariy Botirova Zokir qizi

O`zJOKU Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishi

2-bosqich talabasi, Tel:901372113

mushtariybotirova22@gmail.com33

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18207623>

ARTICLE INFO

Received: 31st December 2025

Accepted: 1st January 2026

Published: 9th January 2026

KEYWORDS

*til, arab, fors, turk, rus, jamiyat, chet
tili, ijtimoiy holat, dunyoviy va diniy.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Behbudiyning tilga bo`lgan qarashlari, til o`rganish naqadar zarurligi va uning mazmun-mohiyati haqida so`z boradi. Hozirgi kundagi tilga bo`lgan e`tibor va ehtiyojlar tahlil qilinadi. Maqolada keltirilgan 4 til alohida tavsiflanadi.

Jadidchilik karvonboshi Behbudi millatni jaholatdan qutqarish, yoshlarning ta`lim tarbiyasi, ilmsizlik degan botqoqdan olib chiqish uchun bor kuchi bilan harakat qildi. Dunyoviy va diniy bilimlarni birdek o`qitish va shu bilan birga yoshlarni ma`naviyatini, madaniyatini, ilmini yuksaltirish uchun bu yo`lda ko`plab maqolalar, asarlar yozib o`zidan boy meros qoldirdi. Maqolalariga nazar tashlasak asosiy targ`ibot ta`lim, milliy uyg`onish, jamiyat islohoti, ayollar huquqlari, ma`rifatparvarlik, madaniyat, va mustamlakachilikka qarshi kurash mavzulari atroflicha keng yoritib berilgan. Behbudi ayollar ta`limi haqida shunday deydi: "Agar biz ayollarimizni savodli qilmasak, millat hech qachon taraqqiy eta olmaydi". Bu so`zlar bejiz emas. Millatimiz kelajagi yoshlarning qo`lida, ularni savodli, o`qimishli onalar tarbiyalaydi. Bir ona o`z bolasiga o`rgata oladigan darajada bilimi ilmi bo`lmas ekan, u millat tannazulga yuz tutadi. Shunday ekan avvalo farzandlarimiz o`qishi uchun ularning tarbiychasi bo`lgan onalar savodli bo`lishi lozim. Millatning ertasi bo`lgan farzandlar o`qisa, yangi bilimlarni olsa, o`z ona tilisi va xorijiy tillarni o`rganishi yurtimiz ravnaqiga o`z hissasini qo`shish bilan barobardir. Shunday ekan Behbudiyning bizgacha yetib kelgan va uning maqolalarida old o`rinda turuvchi "Ikki emas, to`rt til kerak" maqolasida uning naqadar tilga bo`lgan ahamiyati kuchliligini, jamiyatda ko`p tillilik qanchalik zarur ekanini ko`rish mumkin. Oradan 1 asrdan ziyod vaqt o`tibdi-ki ammo fikrlar dolzarbligi hozrgi hayotimiz bilan ahamiyati chambarchas bog`liq. Buning zaminida til o`rganish masalalari turli xil hayotiy misollar bilan yoritib berilgan. Til bilgan el biladi maqoli ham bunga yaqqol misol. Jadid fikriga ko`ra arabiy, turkiy, forsiy va rusiy tillarni o`rgatish zarur ekanligi ta`kidlanadi. O`sha davrning ijtimoiy holatidan kelib chiqib bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Barchamizga ma`lumki dini islom bo`lgan musulomlarning muqaddas kitobi Qur`oni Karimdir. Muqaddas kitobimizning tili arabiyda nozil bo`lgan. Bu tilni bilish nafaqat yoshlarga balki barcha musulmonlarning oldidagi vazifasidir. Chunonchi hali mustaqil davlat tiliga ega bo`lmay turib, yashash uchun rus tili ham juda muhim edi. Mustamlaka davrida barcha qonunlar, hujjatlar rus tilida chop etilgani sababli maktablarda ham rus tili o`qitilinar rus adabiyoti va tarixi chuqur singdirilgani bois mumtoz adabiyotimiz esa deyarli bir chetga surilgan davr bo`lgan. Qaysidir ma`noda o`zbek bo`la turib, tomirida o`zbeklarning qoni oqib turgan vaqtda ammo ijtimoiy holat va xalqning, millatning qaramligi tufayli bunday holatlar barchaga ma`lum. Ilgari surilgan yana bir til bu fosriy hisoblanadi. Bu til haqida muallif

shunday yozadi: "Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, «Masnaviy»dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto'y, Jul Vern va ulamoi zamoniy asarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur"[1]. Har bir turk fosiy tilni bilishi, har bir fors turkiy tilni bilishi kerakligi qayd etilgan. Biz mumtoz adabiyotimizni tarixini o'rganishimiz uchun fors va turk tillarni bilish juda zarur. Buyuk mutafakkir so'z mulking sultoni Alisher Navoiy ham zullisonayn shoir bo'lib ikki tilda forsiy va turkiy tilda ijod qilgan. Uning ijodi nafaqat Temuriylar davri adabiyotida, balki o'zbek mumtoz adabiyotida o'zidan o'chmas va boy asarlari bilan katta o'rin tutadi.

Bu to'rt til targ'ib qilishning asosiy sabablari quyidagicha edi: 1) "turkiy, ya'ni o'zbekiy" – Turkiston xalqining aksariyati so'zlashadigan til; 2) "forsiy" – "madrasa va udabo tilidir. Bu kungacha Turkistonni har tarafidagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur"; 3) "arabiy" – madrasalarda o'qitiladigan barcha shar'iy kitoblar ushbu tilda; 4) "rusiy" – "zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat"[2] qilishga yararlik zamona ilmini o'rganish uchun.

Maqolaning hozirgi kun bilan hamnafasligi barchaga ayon. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kundan boshlab, o'z ona tilimizga e'tibor yanada kuchaydi. So'nggi yillarda chet tilga bo'lgan talab ortdi va bu qonun doirasida belgilab qo'yildi. Til o'rganish uchun juda ko'plab qulayliklar, imkoniyatlar yaratib berildi. Masalan aytishimiz mumkinki yoshlarimiz oliy oquv yurtiga imtixon topshirishlarida ixtiyoriy chet tili belgilab qo'yildi. Hozirgi globallashuv davrida, texnika rivojlanayotgan bir paytda bizga zamonaviy bilimlarni almashish, chet el bilan hamkorlikda o'z ishining mutaxassislarini tayyorlash yangi bilim va ko'nikmalar olish Vatanimiz taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ham siyosiy, ham iqtisodiy tomondan yurtimizda qilinayotgan islohotlar, rivojlanish bunga yaqqol misol bo'ladi. Yurtboshimiz tomonidan o'tkazilayotgan muhim islohotlar aynan tilga bo'lgan e'tibor haqida shunday ta'kidlaydi: "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim" – dedi Shavkat Mirziyoyev[3]. Yurtboshimizning xorijiy tillarga qaratayotgan e'tibori biz yoshlarga berayotgan ishonchining bir namunasi. Biz bu imkoniyatlardan oqilona foydalanib yurtimiz ravnaqi uchun munosib yoshlar bo'lishimizga dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, bu maqoladan ko'zlangan maqsad faqatgina ilm. Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir"[4], dedilar. Ilm saodat kaliti, Inson o'z hayoti, kelajagi uchun izlanishdan to'xtamasligi yangi bilimlarni o'rganish uchun intilmog'i zarur. Dono xalqimiz bekorga "Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni"- deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudxo'ja Behbudiy. Ikki emas, to'rt til lozim. "Oyina" jurnali. 1913-yil 20-avgust. 1-son. 12-14-betlar.

¹ Maxmudxo'ja Behbudiy. Ikki emas, to'rt til lozim. "Oyina" jurnali. 1913-yil 20-avgust. 1-son. 12-14-betlar.

² [Til va dil birligi. Mahmudxo'ja Behbudiyning til borasidagi qarashlari](#)

³ <https://president.uz/oz/lists/view/4327>

⁴ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. "Toshkent islom universiteti". T.:2004.

2. Til va dil birligi. Mahmudxo'ja Behbudiyning til borasidagi qarashlari
3. <https://president.uz/oz/lists/view/4327>
4. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri."Toshkent islom universiteti". T.-2004.

